

**Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna,**  
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali  
"Yoshlar psixologiyasi" kafedrasida o'qituvchisi

# OTA-ONA VA FARZANDLAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI KELIB CHIQISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

UO'K: 159.9

DOI: 10.34920/SO/VOL\_2023\_ISSUE\_1\_7

---

## ***IBAYDULLAYEVA U.R. OTA-ONA VA FARZANDLAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI KELIB CHIQISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI***

Mazkur maqolada ota-ona va farzandlar o'rtasida vujudga kelayotgan kelishmovchilarning ijtimoiy-psixologik omillari tadqiqot natijalari yoritilgan. Jumladan, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarga psixologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tarbiyaviy, gender xususiyatlari va jismoniy omillar sabab bo'lishi haqidagi ma'lumotlar hamda amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: ota-ona, o'smir, nizo, omil, o'zaro munosabat, xarakter, ijtimoiy moslashuv.

---

## ***ИБАЙДУЛЛАЕВА У.Р. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ КОНФЛИКТОВ МЕЖДУ РОДИТЕЛЯМИ И ДЕТЬМИ***

В данной статье освещаются результаты исследования социально-психологических факторов разногласий между родителями и детьми. В частности, даны информация и практические рекомендации о причинах конфликтов между родителями и детьми, обусловленных психологическими, экономическими, социальными, воспитательными, гендерными особенностями и физическими факторами.

Ключевые слова и понятия: родитель, подросток, конфликт, фактор, взаимодействие, характер, социальная адаптация.

---

## ***IBAYDULLAEVA U.R. PSYCHOLOGICAL FACTORS OF CONFLICTS BETWEEN PARENTS AND CHILDREN***

This article highlights the results of a study of socio-psychological factors of disagreements between parents and children. In particular, information and practical recommendations are given on the causes of conflicts between parents and children due to psychological, economic, social, educational, gender characteristics and physical factors.

Key words and concepts: parent, teenager, conflict, factor, interaction, character, social adaptation.

**Kirish.**

Mamlakatimizda oila, oilaviy munosabat, yoshlar tarbiyasi masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Biroq yurtimizda yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan choratadbirlar hamda bu sohaga berilayotgan katta e'tiborga qaramay, o'smir-yoshlar o'rtasida giyohvandlik, jinoyatchilik, tartibbuzarlik kabi mentalitetimizga, etnik xususiyatlarimizga xos bo'lmagan illatlarning ko'payishi kuzatilmoqda.

Bugungi kunda jahon miqyosida oilaviy munosabatlar, xususan, o'smirlik yoshidagi o'zaro munosabatlar, ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolar va ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish masalalari dolzarb muammolardan sanaladi. Chunki shaxsning shakllanishida oiladagi muhit, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy nizolar oqibatida ro'y berayotgan holatlar, oilalarning barbod bo'lishi, millatlar, davlatlarning o'zaro kelishmovchiligi yoshlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi.

**Mavzusining dolzarbligi.**

Jahonda oilani mustahkamlash dolzarb muammo bo'lib, oila dunyo miqyosida beqiyos va boqiy ijtimoiy tuzilma ekanligi e'tirof etilishiga qaramay, turli mamlakatlarda oilaning barbod bo'lishi holatlarining qayd etilish darajasi ortib borayotganligi, oilaviy munosabatlar, ayniqsa, ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolar tufayli oilalarda nosog'lom muhitning hukm surishi, oiladagi ruhiy ziddiyatlar, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotganligi oila mustahkamligini ta'minlash muammosini tadqiq etish zarur ekanligini ko'rsatib bermoqda. Bu borada oilaviy munosabatlarning ota-ona va farzand munosabatlari ko'rinishida yuzaga keladigan nizolarning kelib chiqish sabablarini o'rganish masalalari dolzarb muammolardan sanaladi. Chunki bola shaxsining shakllanishida oiladagi muhit, shaxslararo munosabatlar, oilalarning barbod bo'lishi natijasida yoshlarning tarbiyasi buzilishi holatlari dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

**Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.**

Oila va undagi shaxslararo munosabatlar, uning shaxs shakllanishiga ta'sirini o'z madaniy muhiti sharoitida xorijiy psixolog olimlardan R.Brazington, T.Dumitrashku, F.Galton, U.Toumen, R.Richordson, R.Zayons, G.Xomentauskas va boshqalar ushbu sohani tadqiq qilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan ushbu soha bo'yicha V.V.Boyko, G.M.Breslav, A.G.Volkov, S.V.Kovalev, V.P.Levkovich, E.I.Pavlovich, V.L.Titarenko kabi bir qator olimlar oila muammolari, shaxs oilasidagi genetik va orttiriladigan xususiyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda oila muammolari, undagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini to'g'risida F.Akramova, D.Abdullayeva, V.Karimova, A.Kadirova, Z.Nishonova, G.Niyozmetova, M.Salayeva, N.Sog'inov, R.Samarov, Z.Rasulova, M.Utepbergenov, G'.Shoumarov<sup>1</sup> va boshqa olimlarimizning olib borayotgan tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

**Maqolaning ilmiy yangiligi:**

– ota-ona va farzand munosabatlarida nizolarni darajaviy ifodalanishiga ko'ra raqobat, hamkorlik, murosaliylik, moslashuvchanlik xususiyatlarini integrativ rivojlanishi tufayli o'smirlardagi koping xulq dinamik xususiyatga ega ekanligi asoslangan;

– o'smirlarning nizoli xulq-atvorini individual ifodalanishiga ko'ra o'z-o'ziga beradigan bahoning hissiy komponentini xulqda rivojlaniishi konfliktogen vaziyatni kognitiv baholashning ijtimoiy omillari dalillangan;

– ota-ona va o'smir munosabatlari triadasida nizoli xulqni ifodalanishiga ko'ra emosional munosabatlarda integrativ yondashuvning dual ta'sirini kuchayishi tufayli konfliktogen xulq differensial xususiyatga ega ekanligi dalillangan;

– o'smirlarning ijtimoiy moslashuvida ularning onaga, otaga, aka-ukalariga xulq-atvorning ijtimoiy o'xshashlik darajasini aniqlash jarayonida bolada bemehrlik, sovuqqonlik, befarqlik, yolg'izlik xususiyatlari aniqlanib, ota-

<sup>1</sup> Keltirilgan olimlarning ilmiy asarlari quyidagi dissertasiyada berilgan: Ibaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss.- Toshkent 2022.- 5 b.

onalar va farzandlar o'rtasidagi nizoli vaziyatlarni oldini olish bo'yicha psixoprofilaktik ishlarni olib borish zarur ekanligi dalillangan.

#### **Tadqiqotning maqsadi:**

O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishining psixologik omillarini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning ob'yekti:** Jizzax viloyatining Paxtakor, Sh.Rashidov, Zafarobod tumanlari va Samarqand shahridagi umumta'lim maktab o'quvchilari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmeti:** o'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni dinamik, differensial hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning empirik manbasini** tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib kuza-tish, suhbat, so'rovnoma, psixologik testlar va matematik statistika kabi usullardan foydalanilgan. Jumladan, o'z muallifligimizdagi "Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni kelib chiqishining psixologik omillari" (IPS) kabilardan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchliligi matematik-statistika metodlari (Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti, Studentning t-ishonchlik mezoni) hamda SPSS statistik paketidan foydalanilgan.

#### **Asosiy qism.**

Jahon ta'lim va ilmiy markazlarida turli ijtimoiy sharoitlarda yuzaga keladigan nizoni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, nizo turlarini tahlil qilish, nizolashuv darajasini o'smirlar xarakteriga ta'siri, nizo asosida o'smirlar o'rtasida xulq-atvor buzilishlari, o'z-joniga qasd qilish, o'smirlar jinoyatchiligini oldini olish, nizolashuv holatini ijtimoiy-psixologik profilaktikasi masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Biz o'tkazilgan tadqiqotimiz jarayonida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning kelib chiqishini ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish jarayonida o'z muallifligimizdagi «Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni kelib chiqishining psixologik omillari» nomli ijtimoiy psixologik so'rovnomasidan foydalandik.

Quyidagi jadvalda o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan (1-jadval).

**Psixologik omillar.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aytish joizki, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishi Jizzax viloyati ota-onalari «Oiladagi psixologik muhitni yomonligi omilini birinchi darajali», «Ota-onalarda psixologik bilimlarning yetishmasligi» omilini ikkinchi, «Farzandlarni xohishi inobatga olinmasligi» omili uchinchi, «Ota-ona tomonidan o'smir yosh xususiyatlarini tan olinmasligi» omili kam ahamiyatli darajada qayd etilgan bo'lsa, farzandlarda esa bu omillar quyidagicha namoyon bo'ldi, ya'ni «Farzandlarning istagi inobatga olinmasligi» omili birinchi, «Ota-ona tomonidan o'smirlik yoshidagi xususiyatlarini tan olmasligi» omili ikkinchi, «Ota-onalarda psixologik bilimlarning yetishmasligi» omili uchinchi va «Oilada psixologik muhitning yomonligi» omilini oxirgi o'ringa qo'yganlar.

Samarqand shahri ota-onalarida esa ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni kelib chiqishining psixologik omillari quyidagi natijalarni ko'rsatdi. «Ota-onalarda psixologik bilimlarning yetishmasligi» omilini birinchi, «Ota-ona tomonidan o'smirlik yoshidagi xususiyatlarini tan olmasligi» omili esa ikkinchi darajani ko'rsatgan bo'lsa, «Oilada psixologik muhitning yomonligi» va «Farzandlarning istagi inobatga olinmasligi» omillari esa past natijani ko'rsatmoqda. Samarqandlik o'smirlar «Oilada psixologik muhitning yomonligi» omili yuqori natijani ko'rsatmoqda, ikkinchi o'rinda «Ota-onalarda psixologik bilimlarning yetishmasligi» omili, uchinchi o'rinda esa «Farzandlarning xohishi inobatga olinmasligi» omilini ko'rsatib o'tishgan, «Ota-ona tomonidan o'smirlik yoshidagi xususiyatlarini tan olmaslik» omili borasida o'smirlar munosabat bildirmaganlar.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalardan aytish mumkinki, Jizzax viloyatida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklarni kelib chiqishiga ko'proq «oilada psixologik muhitni yomonligi» va «farzandlarning xohishi inobatga olinmasligi» psixologik omillari bo'lib, bu holat oilaviy munosabatlarda muloqot jarayonining past darajada shakllanganligidan dalolat beradi, bu esa oiladagi o'zaro muno-

1-jadval. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni kelib chiqishining omillari (IPS).

№	Omillar	Javoblar			
		Jizzax		Samarqand	
		Ota-ona n= 73	Farzand n=76	Ota-ona n=20	Farzand n=20
1.	Psixologik omillar ota-ona tomonidan o'smir yosh xususiyatlarini tan olinmasligi	13	19	6	-
	ota-onalarda psixologik bilimlarni yetishmasligi	18	18	9	6
	oilada psixologik muhitni yomonligi	27	14	3	10
	farzandlarning xohishi inobatga olinmasligi	15	25	2	4
2.	Iqtisodiy omillar o'smirning iqtisodiy jihatdan qaramligi	7	11	6	2
	o'smirning ehtiyojlarini inobatga olinmasligi	14	19	6	6
	o'smirdagi moddiy ta'minotdagi kamchiliklar	17	13	4	6
	ota-onalarning farzandlarini me'yoridan ziyod moddiy qo'llab quvvatlashi	19	25	4	8
3.	Ijtimoiy omillar o'smirlik davri krizislari	17	20	4	4
	o'zaro munosabatdagi qiyinchiliklar	13	13	8	7
	o'smirning o'z mavqeini topishdagi muammolar	12	12	3	8
	atrofdagi ota-ona va farzandlarning munosabati	12	26	4	1
4.	Tarbiyaviy omillar ota-onaning farzand tarbiyasiga e'tiborsizligi	21	5	6	2
	ota-onaning moddiy ta'minot bilan bandligi	20	22	8	5
	ota-onaning farzandi kelajagiga e'tiborsizligi	18	16	3	5
	farzandni qarovsizligi	13	10	3	7
5.	Gender xususiyatlari omili ota-onaning farzandlarini o'g'il va qiz bolaga ajratib munosabatda bo'lishi	21	22	10	-
	ota ko'proq o'g'il farzand bilan ona esa qiz farzand bilan shug'ullanishi	16	27	7	12
	qiz farzandlarga nisbatan ojiza sifatida qaralishi	13	11	-	4
	o'g'il farzandga oilaning merosxo'ri sifatida qaralishi	16	10	3	4
6.	Jismoniy omil o'smirdagi qo'rquv hisi	15	25	5	1
	o'smirlarning jismoniy jazolanishi	18	7	8	2
	farzandlarning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olmaslik	7	17	6	9
	farzandga tazyiq o'tkazilishi	19	23	1	8

sabatlarni korreksiya qilish va psixologik profilaktika ishlarini tashkil qilish lozim ekanligini ta'kidlash dardkor. «Ota-onalarda psixologik bilimlarni yetishmasligi» va «farzandlarni xohishini inobatga olinmasligi» psixologik omillari esa ota-ona va farzandlar o'rtasida nizo va kelishmovchiliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi ta'kidlab o'tilganini ko'rish mumkin. Bu holat oiladagi munosabatlarda psixologik bilimlarni yetishmasligidan dalolat beradi.

**Iqtisodiy omillar.** Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni kelib chiqishida iqtisodiy omillarning ham ta'siri o'rganilganda Jizzax ota-onalari «ota-onalarning farzandlarini me'yoridan ziyod moddiy qo'llab-quvvatlashi», «o'smirdagi moddiy ta'minotdagi kamchiliklar» omilining nizolarga sabab bo'lishini ta'kidlagan bo'lsalar, Samarqand ota-onalari «o'smirning iqtisodiy jihatdan qaramligi» va «o'smirning ehtiyojlarini inobatga olinmasligi» omiliga urg'u

berib o'tganlar. Demak, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni oldini olish uchun yuqorida keltirilgan omillarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot natijalari asosida namoyon bo'ldi.

Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni kelib chiqishida iqtisodiy omillarning ta'siri borasida o'smirlar quyidagi javoblarni qayd etishdi. Jizzax viloyati o'smirlari «o'smirning iqtisodiy jihatdan qaramligi» va «o'smirning ehtiyojlarini inobatga olinmasligi» omillari qayd etgan bo'lsalar, Samarqand viloyati o'smirlari esa «o'smir ehtiyojlari inobatga olinmasligi» va «o'smirdagi moddiy ta'minotdagi kamchiliklar» omillarini asosiy omil sifatida ko'rsatib o'tganlar.

**Ijtimoiy omillar.** Olingan tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, Jizzaxlik ota-onalar farzandlari bilan o'zaro nizolarni kelib chiqishida «o'smirlik davri krizislari» omilini sabab qilib ko'rsatgan bo'lsalar, Samarqandlik ota-ona-

lar esa «o'zaro munosabatdagi qiyinchiliklar» omilini tanlaganlar. Bu borada o'smirlarning fikrlari quyidagilarni tashkil qilmoqda, ya'ni «o'smirlik davri krizislari» hamda «atrofdagi ota-ona va farzandlarning munosabati» omili (Jizzax), «o'zaro munosabatdagi qiyinchiliklar» omilini nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida ko'rsatib o'tganlar. Demak, yuqorida keltirilgan omillar ota-onalar va farzandlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni yetakchi omil ekanligi tadqiqot natijalarida o'z aksini topgan. Bizning fikrimizcha, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni kelib chiqishida yuqorida keltirilgan omillarni ota-onalar va farzandlarda yuzaga kelishida psixologik bilimlarni yetishmasligi sabab bo'lar ekan. Bu sabablarni bartaraf etish uchun ota-ona va farzandlar o'rtasida psixologik mazmundagi suhbatlarni tashkil etish muhim o'rin tutadi.

**Tarbiyaviy omillar.** Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni kelib chiqishida tarbiyaviy omillarni ta'siri sabablari ham tadqiqot jarayonida o'rganildi. O'rganish natijalari asosida aytish mumkinki, ota-ona va farzand o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni kelib chiqishida oiladagi tarbiyaviy omillarni ham ma'lum darajada ta'siri bo'lar ekan, buni tadqiqot natijalari ham ko'rsatib turibdi. Ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolarda «ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tiborsizligi», «ota-onaning moddiy ta'minot bilan bandligi», «ota-onaning farzandi kelajagiga e'tiborsizligi» kabi omillar kelishmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan. Samarqandlik respondentlar «ota-onaning moddiy ta'minot bilan bandligi», «ota-onaning farzand tarbiyasiga e'tiborsizligi» omillarini nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablar deb ko'rsatib o'tgan bo'lsalar, Samarqandlik o'smirlarning ota-onalari ko'rsatib o'tgan omillardan tashqari «farzandni qarovsizligi» omiliga urg'u berganlar. Demak, tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytish joizki, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni oldini olish uchun maktab psixologlari o'z faoliyatlari jarayonida psixoprofilaktik va tuzatish ishlarini tashkil qilishga ko'proq e'tibor qaratishi, guruhiy va individual tarzda profilaktik suhbatlar hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni o'tkazishlari,

ota-ona va farzandlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarni kamayishiga olib keladi.

**Gender xususiyatlari omili.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni kelib chiqishida gender xususiyatlari omili ham ma'lum darajada ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, respondent ota-onalar «ota-onaning farzandlarini o'g'il va qiz bolaga ajratib munosabatda bo'lishi» va «ota ko'proq o'g'il farzand bilan, ona esa qiz farzand bilan shug'ullanishi» omillari, respondent o'smirlar esa «ota ko'proq o'g'il farzand bilan, ona esa qiz farzand bilan shug'ullanishi» (Jizzax va Samarqand), «ota-onaning farzandlarini o'g'il va qiz bolaga ajratib munosabatda bo'lishi» omillarini nizoni kelib chiqishiga sabab deb ko'rsatganlar. Tadqiqot natijalari «qiz farzandlarga nisbatan ojiza sifatida qaralishi» va «o'g'il farzandga oilaning merosxo'ri sifatida qaralishi» kabi omillarning ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni yuzaga keltirishda kam ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Demak, oilada farzand tarbiyasida ularni jins xususiyatlariga alohida urg'u berilishi o'zaro munosabatlarni shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan.

**Jismoniy omil.** Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi turli nizolar, kelishmovchilik hamda tushunmovchiliklarni vujudga kelishining psixologik omillaridan biri sifatida jismoniy omilni tadqiq qilish mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Tadqiqot natijalari ota-ona va farzandlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarga ko'proq sabab bo'ladigan «o'smirlarning jismoniy jazolanishi», «farzandga tazyiq o'tkazilishi» omili (Jizzax, ota-ona), «o'smirdagi qo'rquv hisi» va «farzandga tazyiq o'tkazilishi» (Jizzax, o'smirlar) omillarini ko'rsatgan bo'lsalar, «o'smirlarning jismoniy jazolanishi» va «farzandlarning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olmaslik» (Samarqand, ota-ona), Samarqandlik o'smirlar «farzandlarning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olmaslik» va «farzandga tazyiq o'tkazilishi» omillari ota-ona va farzandlar o'rtasida salbiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar. Aytish joizki, jismoniy omilda belgilangan barcha sabablar nizolarga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi tadqiqot natijalarida o'z aksini topgan.

Ota-ona va farzandlar o'rtasida yuzaga keladigan nizo va ziddiyatlarni kelib chiqishida psixologik omillarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, yuqorida aytib o'tilgan omillarning hammasi nizo va kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'lishi mumkin ekan.

Bundan tashqari, «XX asrning boshida Amerikada o'tkazilgan qator izlanishlar asosida bola ijtimoiylashuvi jarayonida otaning o'rniga xos bo'lgan quyidagi umumiy sifatlar qayd etilgan:

- otasiz bolalar sonining ortib borayotganligi, oilada otaning kam bo'lishi;
- ota bilan bola o'rtasida muloqotning onanikiga nisbatan sezilarli darajada kamligi;
- pedagogik nuqtai nazardan otalarning bilimsizligi, malakasizligi;
- bolaga, ayniqsa kichik yoshdagilarga g'amxo'rlik qilish malakasining otalarda kamligi va unga bo'lgan sovuqqon munosabat layoqatsizlik»<sup>1</sup>.

Bundan shuni tahlil qilish mumkinki, oilada otalarning farzandlar bilan muloqotining kamligi, bola bilan ishlash malakasining yetarli emasligi hamda oilalardagi ajralishlar natijasida farzandlar bilan otalarning o'zaro kelishmovchiliklari kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Demak, ota-ona va o'smirlar o'rtasida nizolarni bartaraf etishda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda nizolarni yuzaga kelmasligi uchun har bir omillarda keltirilgan sabablarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim.

### **Xulosalar.**

Tadqiqotda foydalanilgan metodikamiz asosida olingan empirik materiallar natijasida quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

1. Nizo tabiiy va ijtimoiy hodisa bo'lib, u har birimizning turmushimiz va tirikligimizga xos va hayotimizga tegishli bo'lgan jarayon hisoblanadi.

2. Inson turli nizo va ziddiyatlar bilan umri davomida, har qanday yoshda, har qanday joyda, har qanday vaziyatda to'qnash kelish mumkin.

3. Nizolar uyda, maktabda, ko'chada, o'quvchilar orasida, ota-onalar va farzandlar, xodimlar va rahbariyat orasida, jamoa a'zolari o'rtasida sodir bo'lishi mumkin.

4. Nizolar, odatda, ko'p vaqt odamlar birga bo'ladigan hollarda, ya'ni ular uzoq muddat bir-birlari bilan ruhiy muloqotda bo'ladigan hollarda, ular ma'lum muddat o'zaro birga bo'lishga majbur bo'lgan paytlarida ko'proq sodir bo'ladi.

5. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlarning o'zaro munosabatlari, ular o'rtasidagi kelishmovchiliklar, o'z oilasidagi ichki muhitga munosabati, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ota-ona va farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

6. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishiga ta'sir qiluvchi psixologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tarbiyaviy, gender xususiyatlari va jismoniy omillar sabab bo'lishi mumkin ekan, bu omillar ta'siri natijasida oilada otalarning farzandlariga bo'lgan munosabatidagi, oilada farzandning qiz bola va o'g'il bolaga ajratilishi, shu asosda o'zaro munosabatlarni shakllanishi o'rtadagi nizolarni yuzaga chiqishi olib kelishi bilan xarakterlanadi.

### **Tavsiyalar.**

- har bir oilada ota-ona farzandlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi, farzandini kimlar bilan munosabatda bo'layotganligiga e'tibor berishi;

- farzandlarni xarakteridagi ijobiy xislatlarini namoyon bo'lishiga xulqidagi salbiy jihatlarni tuzatishi, ota-onalar farzandlariga nisbatan bir xil munosabatda bo'lishi, bolani haddan ziyod erkalamaslik, kamsitmasligi;

- ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarni sabablarini inobatga olish, ular bilan do'stona munosabatda bo'lish va farzandlar bilan ishlashda qat'iy qoidalarga rioya qilish;

- farzandlarni o'smirlik davrida sodir bo'layotgan o'zgarishlarini inobatga olish, uni shaxs sifatida qabul qilish, ayblamaslik, ularni qilgan ishlari va xatti-harakatlarini tanqid qilmasliklari tavsiya qilinadi.

<sup>1</sup> Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari nomzodlik diss. – T.: 2007. – B. 24.

**Adabiyotlar ro'yhati:**

1. Ibaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. - T.: 2022. – 5 b.
2. Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'ricida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari nomzodi diss. – T.: 2007. – 24 b.
3. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: 2014. – 185 b.
4. Rasulova F.F. O'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari: Avtoref. diss. ps. fan (PhD): 19.00.06 – T.: 2018. – 48 b.
5. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T.: 2005. – 15 b.
6. Umarova M.M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis. psixol. fan. nomzodi: 19.00.05. – T.: 2004. – 166 b.
7. Ибайдуллаева У.Р., Абдурасулов Р.У. Methods of overcoming internal conflicts between teenagers. EJRRS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 № 6, 2020, 1-7 бетлар.
8. Ибайдуллаева У.Р. Ўсмирлар ўртасидаги низолар ва уларни бартараф этиш. Илм-Фан ва таълимда инновациялар: муаммо ва истиқболлар.// Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Жиззах филиали. // Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг I илмий-амалий конференцияси /// Жиззах: 2020. - 37-39 б.